

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy san'at asosida ijodkorlikni shakllantirishning samaradorligi

Manzura Xurshid qizi Burxonova
SamDU

Annotatsiya: Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlar «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun asosida amalga oshirilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimining birinchi pog'onasi hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom»i, «O'zbekiston Respublikasida davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar tashkilotlari to'g'risidagi Nizom»i asosida olib borilmoqda. Respublikamizda ishlab chiqilgan «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan talablar» me'yoriy hujjati hamda tayanch dasturi asosida olib borilmoqda.

Kalit so'zlar: Natura, tajriba-sinov, Maktabgacha ta'lim, tadqiqot, peyzaj, tabiiy materiallar, ijodiy qobiliyati, kuzatish, idrok etish, go'zallikni his qilish, qobiliyatining rivojlanganligi, badiiy tasviriy vositalar

The effectiveness of fine arts-based creativity in preschool adults

Manzura Khurshid qizi Burkhonova
SamSU

Abstract: Reforms in the field of education in our country are carried out in accordance with the Law "On Education". The educational process carried out in preschool educational institutions, which are the first stage of the system of continuing education, is regulated by the Regulations on Preschool Education of the Republic of Uzbekistan. Regulations on preschool children's organizations. It is carried out on the basis of the normative document "Requirements for the education of preschool children" and the basic program developed in the country.

Keywords: Nature, experimentation, Preschool education, research, landscape, natural materials, creative ability, observation, perception, sense of beauty, ability development, artistic means

Ma'lumki jamiyat uchun barkamol insonni tarbiyalashda tasviriy san'at asarlarining o'rni va ahamiyati katta. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishida nafosat tarbiyasi muhim ahamiyatga ega. Ana

shuni hisobga olgan holda biz tadqiqotimizga «Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy san'at namunalari asosida ijodkorlikni tarbiyalash» mavzusini tanlagan ekanmiz, mavzuni yoritish maqsadida Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar 19-son maktab-bog'chasida tajriba-sinov va kuzatuv ishlarini olib bordik. Chunki nafosat tarbiyasi mazmunining asosini maktabgacha katta yoshdagi bolalar tomonidan chiroyli rasmlarni his etish, ulardan zavqlana olish, asosiy ranglarni bilish va farqlay olish, qalam va flomasterdan foydalana olish, ular yordamida plastilin yoki loydan sodda shakldagi narsalarni yasay bilish orqali ijodkorlikni rivojlantirish ishi amalga oshirildi.

Biz tadqiqot ishimizni olib borish uchun belgilangan bolalar bog'chalarida tarbiyalanayotgan katta yoshdagi bolalar ana shu dasturiy talablarni qanday bajarayotganini, natijada ularda tasviriy san'at namunalari asosida ijodkorlik qanday shakllanayotganligini kuzatdik.

Tasviriy san'at namunalari asosida ijodkorlikni rivojlantirishda bolalarda tasviriy san'at namunasi mazmunini anglashga doir ko'nikma va malakalarning shakllanganligi, ularning dekorativ naqshlar haqida tasavvurlarining qay darajada rivojlanganligini, narsa va hodisalarni kuzatish, idrok etish, go'zallikni his qilish, qobiliyatining rivojlanganligi, badiiy tasviriy vositalarga qiziqishining o'sganligi, voqeaband rasmlarni anglashi qay darajada rivojlanganligiga e'tibor berildi. Bu borada aylana ichida naqsh ishlash, gulsimon naqshlar chizish, kvadrat ichida aylana chizish, oddiy shakldagi buyumlarni naqsh bilan bezatish kabilarni bilishlari talab etiladi. Shuningdek, lego va turli konstruksiyalardan sodda o'yinchoqlarni yasash, tasviriy san'at asarini tushuna bilish, aylanma va jimjimador chiziqchalar chiza olish tabiiy materiallardan o'yinchoq yasay olish, loy va plastilindan meva va sabzavotlar, hayvonlar, qushlar, parrandalar, turli o'yinchoklar, uy-ro'zg'or buyumlarining shaklini yasay olish, qog'oz yuzasida chizayotgan rasmni to'g'ri joylashtira olish, rangni to'g'ri tanlash va uni o'rinli ishlata olish kabi ko'nikma va malakaga ega bo'lishi ham zarurdir.

Olib borilgan tadqiqot ishimizning samaradorligini aniqlash maqsadida bolalar ijodiy qobiliyatining qay darajada rivojlanganligini namoyon etgan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Bolalarning tasviriy san'at janrlari (natyurmort, peyzaj va b.) ni qay darajada tushunishini aniqlash. Bu jarayonda bolalar bilan o'rganilgan tasviriy san'at namunalaridan ikkitasiga ularning diqqati qaratiladi. Masalan, A.Roziqovning «Ariq bo'yida» va A.Ikromjonovning «Olmali natyurmort» asarlari qo'yiladi. Rasmlar bo'yicha savollar tuziladi, rasmlarning ranglariga, mazmuniga qarab savollar beriladi, ularning qaysi biri peyzaj, qaysi biri natyurmort ekanligi aniqlanadi. Tajriba-sinov boshida 25 ta bolaning 21 tasi natyurmort bilan peyzajni farqlay olishmadi, tajriba-sinov oxirida ularning janrini ajratib, hatto 17 bola natyurmortni chizib ko'rsatdi.

2. Bolalarning naturadan predmetni qanday ajratib olishi aniqlanadi. Ya'ni predmetga shakl berishi, rangini to'g'ri ifodalashi va b. Masalan, tarbiyachi eng oddiy guldonna ajratib oladi va bolalarga uni diqqat bilan kuzatib, uning tuzilishini qalam orqali chizishni topshiradi. Tarbiyalanuvchining ishini tahlil etib, tarbiyachi unda ijodkorlik qay darajada rivojlanganligini aniqlaydi. Tajriba-sinov o'tkazilayotgan guruhda 25 boladan 19 tasi u yoki bu darajada guldonna chizgan, shundan 5 tasi guldonga gul ham solib qo'ygan. Demak, 19 ta boladan beshtasida ijodkorlikka yana fantaziya ham qo'shib ketgan. .

3. Bolalarning rasm yasashga doir ijodiy qobiliyati aniqlanadi. Bunda tarbiyachi biror uy hayvonining harakati, uning o'ziga xos xususiyatlarini ham ifodalashini aniqlaydi. Shu bilan birga tarbiyachi bolalarda tasviriy obrazlar yaratishdagi hissiyotlari va tuyg'ularining qay darajada ifodalashini hisobga olib boradi. Yuqoridagi topshiriqni bajarishda tajriba-sinovga tortilgan 25 boladan 13 tasi topshiriqni uddalagan, 5 ta bola rasmini chizishda o'z hissiyotlarini ham ifodalagan ko'rinib turibdi. Shu bilan birga bolalarga mashg'ulotlarda o'rgangan «O'zbekiston bayrog'i», «Mevalar» turkumini chizish va ranglash, «Xo'rozcha», «Yuk mashinam», «Qish fasli», «Qo'g'irchoq», «Mening sevimli ertagim - Zumrad va Qimmat», «Bahor keldi», «Navro'z bayrami», «Piyola va kosa», «Bizning hovli» kabi mavzularda rasmlar chizish topshirildi. Applikasiya, qurish va yelimlash bo'yicha «Yuk mashinasi», «Yuqori qavatli bino», «Tramvay», «Biz yashayotgan uy», «Yangi yil archasi», «Masxaraboz», «Poyezd», «Non», «Sabzavotlar va mevalar», «O'yinchoqlar», «Raqsga tushayotgan qiz» kabi topshiriqlar berildi. Yakuniy nazoratda mavzular bo'yicha tuzilgan 100 ta savolning har biriga to'g'ri javob uchun 1 ball belgilandi. Bolalarning ijodkorlik darajasi quyidagicha belgilandi:

100 balldan-90 ballgacha - yuqori daraja;

89 balldan-70 ballgacha - yaxshi;

69 balldan-50 ballgacha - o'rta daraja;

50 balldan past olganlar past darajaga kiritildn.

Biz tajriba - sinov ishlari olib borgan bog'chalardagi sinov guruhlarida natija quyidagicha bo'ldi:

1 -jadval

Bolalar soni		Tajriba avvalida	Tajriba so'ngida
darajasi			
25	Yuqori	3	7
25	Yaxshi	7	9
25	O'rta	5	11
25	Past	10	5

Ko'rinib turibdiki, tadqiqotimiz natijasida bolalarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, ularda rasm chizishga bo'lgan ishtiyoqning o'sishi bilan birga uning ma'naviy hayoti ham boyigan: Bolalar o'zlari kuzatayotgan atrof-olamdagi biror-bir narsani qog'ozda tasvirlabgina qolmay, balki go'zallik ijodkorlari sifatida o'zlari chizayotgan narsalari bilan birga yashaydilar va undagi go'zallikdan zavqlanadilar. Chunki bolalar ijodi - ular ma'naviy hayotining o'ziga xos sohasi, ularning o'z-o'zlarini namoyon etishi va qaror topishidir. Unda har bir bolaning individual o'ziga xosligi yuzaga chiqadi. Bu o'ziga xoslikni yagona va hamma uchun shart bo'lgan qoidalar bilan qamrab olib bo'lmaydi. Ijodiyot bola qalbidagi yaxshi hissiyotlar yashirinib yotgan muqaddas joylarni yoritib yuboradi.

Faqat bolaga tevarak-olam go'zalligini his etishda ko'maklashib, tarbiyachi ana shu joylarga turtki beradi. Biz yakuniy mashg'ulotda buning guvohi bo'ldik. Yakuniy mashg'ulotda har bir bola o'zi nima chizgani, qurgani, yasaganini aytib berishni xohlar edik. Ularning hikoyalarida esa yorqin obrazlar, tashbeg'lar yarqirab turadi. Rasm solish ular nutqini o'stirishga ham yordam beradi. Bunga biz sayr-sayohatlar paytida, ayniqsa, ishonch hosil qildik. Lekin bu hali ijodkorlikning dastlabki kurtagigina bo'lib, uni yanadi rivojlantirib faoliyat sari faol intilishiga aylantirish, bu foaliyatni keyingi bosqichda uzviy va uzluksiz davom ettirish har bir tarbiyachining vazifasi sanaladi.

Xulosa

Barkamol insonni tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Yosh o'g'il-qizlarni zamon talablari darajasida tarbiyalashda san'at - alohida ahamiyatga ega. Ana shu jihatdan qaraganimizda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tasviriy san'at namunalari asosida ijodkorlikni tarbiyalash bolalar bog'chalarining oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Ana shu dolzarblik hisobga olgan holda biz «Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy san'at namunalari asosida ijodkorlikni tarbiyalash»ni tadqiqot mavzusi qilib tanlagan ekanmiz, avvalo ishimizda ushbu mavzuning nazariy asoslarini o'rgandik.

Ayniqsa, barkamol inson tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotida sana'tning tutgan o'rni beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini aniqlash va uni to'g'ri rivojlantirishda bolalarning psixologik-jismoniy rivojlanishi, tarbiya sharoiti va boshqa omillarni hisobga olmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi

PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 yil., 6-son, 70-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi ”Maktabgacha ta’lim tizimi boshkaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturini bajarish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi”.

4. «Bolajon» tayanch dasturining takomillashtirilgan varianti Toshkent - 2016 y.

5. Mirziyoyev Sh, Buyuk kyelajagimizpi mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, ”O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.

6. Boboyeva D.G. Tevarak-atrofni o‘rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bog‘lanishli nutqini rivojlantirish. 13.00.02. Avtoreferat. T — 2001 y., 25 b.

7. THE ROLE OF EDUCATORS IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S ABILITIES AND CREATIVITY THROUGH THE USE OF VISUAL AIDS IN PRESCHOOL EDUCATION 156-158

8. Pedagogik atamalar lugati. / Tuzuvchilar: R.X.Djurayev, O‘.Q.Tolipov, R.G.Safarova va boshq.- T.: ”Fan” nashriyoti, 2008, B. 104.

9. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. - Toshkent: ”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015, 320-6.